



Berilgan yo'nalishga parallel urinma o'tkazish.

Biror ℓ egri chiziqqa berilgan s yo'nalishga parallel urinma o'tkazish uchun ℓ egri chiziqni s yo'nalishga parallel chiziqlar bilan kesiladi va xosil bo'lgan 11_1 , 22_1 , 33_1 ,... vatarlarni teng ikkiga buluvchi nuqtalar orqali q xatoliklar egri chizig'ini o'tkaziladi (6-rasm). q egri chiziqning ℓ bilan kesishish nuqtasi B ni topiladi. B nuqta orqali berilgan s yo'nalishga parallel qilib t urinmani o'tkaziladi.




6-rasm.



7-rasm.

Egri chiziq ustida yotgan nuqta orqali unga urinma o'tkazish. Berilgan ℓ egri chiziqni uning ustida yotgan A nuqtadan chikuvchi to'g'ri chiziqlar bilan kesiladi (7-rasm). A nuqtadan o'tuvchi urinmaning taxminiy yo'nalishiga perpendikulyar qilib b to'g'ri chiziqni o'tkaziladi. kesuvchi nurlarga b to'g'ri chiziqni kesib o'tgan nuqtalardan boshlab usha chiziqning ℓ dagi vatar uzunligi o'lchab quyiladi. Nuqtalar to'plami q egri chiziqni xosil qiladi. q egri chiziqning b bilan kesishish nuqtasi B ni A nuqta bilan birlashtirganda t urinmaga xosil bo'ladi.



Egri chiziqdan tashqarida olingan nuqtadan unga normal o'tkazish. ℓ egri chiziqdan tashqaridagi A nuqtani konsentrik aylanalarning markazi sifatida qabul qilib (8-rasm), undan berilgan egri chiziqni kesuvchi bir necha aylanalar chiziladi. Bu aylanalar ℓ egri chiziqni $11_1, 22_1, 33_1, \dots$ nuqtalarda kesadi. Mos nuqtalarni o'zaro birlashtirib, egri chiziqning $11_1, 22_1, 33_1, \dots$ vatarlarini xosil qilinadi. Vatarlar uchlaridan qarama-qarshi yo'nalishda unga perpendikulyar

chiziqlar chiqariladi va ularga vatarlar uzunliglarini o'lchab quyiladi. Bu kesmalarning uchlarini tartib bilan birlashtirib q chiziq xosil qiladi. q va ℓ egri chiziqlar o'zaro B nuqtada kesishadilar. A va B nuqtalarni birlashtiruvchi n to'g'ri chiziq ℓ egri chiziqning normali bo'ladi.